

PEDAGOGIK JARAYONDA TIL VA ADABIYOTNING O'RNI VA TARBIYAVIY TASIRI.

X.Orziqulov Qo'qon universiteti

pedagogika va psixologiya kafedra v.b dotsenti

xusnidinorziqulov@gmail.com

Qo'qon universiteti

turizm va iqtisodiyot fakulteti

xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Abdurashidova Durdonaxon

durona6abdurashidova@gmail.com

Annotatsiya: mazkur tezisdagi til va adabiyotning inson xayotidagi o'rni va jamiyat rivojiga tasiri bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib borishga qaratilgan. Til bu insonlar o'rtasidagi aloqa vositasi bo'lib, adabiyot bilan chambarchas bog'liq. Adabiyotda til orqali qadriyatlar va intilishlar aks etadi. Ushbu maqolada til va adabiyot orqali shaxsni shakllatirish, jamiyatning manaviy va madaniy rivojlanishiga qo'shgan hissasi, o'zlikni saqlashda va globallashtirish davrida til va adabiyotga bo'lgan munosabatni saqlab qolishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: inson, jamiyat, til, adabiyot, qadriyatlar, shaxs, manaviy va madaniy, o'zlikni saqlash, globallashtirish.

Annotation: this thesis aims to conduct scientific research related to the role of language and literature in human life and its impact on the development of society. Language is a means of communication between people, closely related to literature. The literature reflects values and aspirations through language. This article focuses on the shaping of identity through language and literature, contributions to the manic and cultural development of society, in the preservation of identity, and the preservation of attitudes towards language and literature during the era of globalization.

Keywords: human, society, language, literature, values, personality, manic and cultural, self-preservation, globalization.

Kirish

“Vatan va xalq manfaati uchun mardona kurashadigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, bilimli va bunyodkor avlodni kim tarbiyalaydi? Albatta, sizlar – zahmatkash va jonkuyar ustozlar.”

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev.

Til va adabiyot rivojlanib borayotgan har bir davlatning asosiy poydevori hisoblanadi. Har bir millatning tarixiy rivojlanishi, madaniyati va xususiyatlarini ifoda etuvchi ajral, as bir qismi darxaqiqat til va adabiyotdir. Til orqali insonlar o'z fikrlarini ifodalab, boshqa odamlar bilan muqolot qilish vositasi bo'lsa, adabiyot esa tilni san'at darajasiga ko'tarib xalqning ruxiy holatlari, ichki kechinmalarini va fikrlarini keng doirasini o'zida qamrab oladi. Inson va jamiyat rivojlanishi, insonni jamiyatda o'rin topishi va kelajagi ko'p xollarda til va adabiyotga bog'liq bo'ladi. Til va adabiyot o'rganish bu shunchaki soha emas, balki bir butun millataning rivojlanish jarayonidir. Inson adabiyotni san'atga aylantirib, tilni to'g'ri va samarali ishlarishi orqali o'z fikrini ochiq, ma'noli va yanada hissiyotli qilishi mumkin.

Til va adabiyot bir birini tobora rivojlantirib borishi bu yurtimizdagi ko'plab sohalarga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Ularning rivojlanishi jamiyatda yangilik, insonlarning erkin va mazmunli fikr yuritishlarni aks ettirib madaniyatini va ruhiyatini shakillantirmoqda. Bugungi kunda til va adabiyotning rivoji nafaqat milliy balki globalallashuv davrida ham ahamiyatli bo'lib kelmoqda. Ya'ni, yangi ifodalar, janrlar va uslublar insonlarning ijobiy salohiyatini yanada kengaytirmoqda.

Asosiy qism

Istiqlol davri o'zbek adabiyoti yangilangan adabiyotdir. Zero, u ozod tafakkur mevasi o'laroq maydonga tusha boshladi. Ammo u yo'q yerdan paydo bo'lmadi. Cho'lpon XX asr avvalida «bir xil, bir xil... ko'ngil yangilik qidiradir» deganidayoq yangilikka intilish tug'ilib bo'lgandi. Shu ma'noda muayyan an'ana, tajriba bor edi. Demak, istiqlol davri yangi o'zbek asarlarining asosiylari, albatta, an'anadan uzilgan g'uddalar emas, aksincha, o'sha silsilaning davomi o'laroq dunyoga keldi, kelmoqda. Shu bilan birga, erkin badiiy tafakkur mahsuli sifatida o'zini (olam ichra olam, ya'ni bir butun tizim o'laroq) namoyon qilayotgani kishini behad quvontiradi. Bugun yurtimiz ijodkori o'z nuqtayi nazarini, qadim Sharq adabiyotida bo'lgani kabi, olami sug'ro – mukarram Insonga, uning qalbiga qaratgan. Hamda botindagi murakkab jarayonlarni bayonchilik yo'li bilangina emas (chunki bunday usul bor, bo'ladi va bu tabiiydir), ayni paytda, umuminsoniy va umumzamoniy mezonlarga suyangan holda Majoz vositasida ham qog'ozga tushirmoqdalar, san'atga aylantirmoqdalar[1]. Ko'rinib turibdiki adabiyot uchun katta o'zgarish bu- yozuvchilarning o'z asarlarida jamiyat, inson, ichki tuyg'ular haqida erkin gapira olishlaridir. Yangilaninsh eng avvalo erkin fikrlay olishdan boshlanmoqda. Albatta yangilik yo'q joydan paydo bo'lmaydi. Adabiyot va tilning yangilanishi o'tgan asrlardagi tajribalar negizida shakillanmoqda. Cho'lponning «bir xil, bir xil... ko'ngil yangilik qidiradir» degan fikri ham shuni ko'rsatadiki, ular o'z davrida yangilikka intilib yashagan. Istiqlol davri esa intilishlarga yangi yo'l ochuvchi bir eshik bo'ldi. Istiqlol davridagi adabiyot va tilning rivojlanishi yozuvchilarning erkin va o'ziga xos fikrlashi jamiyat uchun katta hissa qo'shmoqda. Ular o'tmishni unutib emas balki, undan o'zbek milliy adabiyoti va

jamiyati riviji uchun foydalanmoqdalar. Bu yo'l bilan esa, adabiyotimizni boyitib, ildizli daraxtga aylantirishmoqda.

Kecha – sho'rolar zamonida adabiyotda shakl mazmun (g'oya)ga qurbon qilinayozgan edi. Modernizm da esa ko'pincha buning teskarisiga duch kelamiz: shakl ketidan quvilib, mazmun boy beriladi (yoki shunchalar chuqur berkitiladiki, natijada muallifning o'zi ham asari mohiyatiga yetib borolmasligi mumkin). Aslida, har ikkovi o'rtasidagi zargarona mutanosiblik hamda buning oqibatida kelib chiqadigan buzilmas muvozanat badiiy asarning yaroqliligi va zavq ila o'qishliligini ta'minlaydi. Bunday asarlarga davrlar va ulardagi o'zgarishlar juda kam ta'sir qiladi. Mumtoz adabiyot namunalari u yoki bu davr chegaralarini oshib o'tib, barcha davrlarga xizmat qiladi. Shuning uchun ham u mumtoz hisoblanadi. Tafakkur erkinligi bois istiqlool davri o'zbek ijodkori ham xuddi shunday asarlar yozish imkoniyatiga ega bo'lib turibdi. Endi ijodkorning ijod maydoni ikki daryo oralig'i emas, balki ikki qutbdir. Bas, qutblar aro «ot choptirish»ga yaroqli bo'lmak lozim.[2]

Aytib o'tilayotgan fikrlarga e'tibor bersak, mustaqillik davrida o'zbek adabiyoti avvalgilardan farqli ravishda shakl va mazmun muvozanatini toppish, badiiy sifatini yuqori darajada saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu bilan birga, yangi erkinlik ijodkorlarni keng maydongan olib chiqdi, u yerda ular turli yondashuvlar va qarashlarni ifoda etib, badiiy jarayonni yanada boyitmoqda.

Dunyo madaniyatlarining qorishuvi. Bunga elektron axborot vositalarida ro'y bergan tezkorlik, masalan, televideniye va internetni asosiy sabablardan biri sifatida ko'rsatish mumkin. Natijada turfa xil madaniyatlar ilgari hech qachon ko'rilmagan, kuzatilmagan darajada bir-biriga ta'sir qildi, bir-biriga qorishdi. Turmushdagi bu hol (eklektiklik) san'at va adabiyotga ham ko'chib o'tdi. Turli san'atlar o'zaro bir-biriga «aralashdi».

Ommaviy didsizlashuv. Bunga sabab qilib olimlar badiiy asar qimmatini uning qancha ko'p foyda keltirganligi bilan o'lchanishini ko'rsatishadi. Natijada badiiy asarga san'at asari deb emas, balki tovar o'laroq qaraldi va shunday «ishlab chiqara» boshlandi. Uslublar, janrlar qorishdi, mutatsiyaga uchradi. Chinakam san'at asari bilan ommaviy asar o'rtasidagi chegara buzildi. San'at asari dizaynlashdi, ya'ni faqat uning tashqi bezagiga e'tibor kuchaydi. U sotiladigan tovarga aylantirildi. Bularning hammasi bir bo'lib ommaviy didsizlashuvga yo'l ochdi. [3]

Globalizm o'z domiga tortgan dunyoda adabiyot o'z «mahallasining kayfiyati»ni kuylab xotirjam bo'lolmaydi. O'zbek shoiri: «Ikki daryo oralig'ida, Qolib ketdi mening ovozim» (Abdulla Oripov), – deb yozgan edi. Endi insonni qiziqtiradigan, uning hayotiga ta'sir qiladigan maydon ikki qutb o'rtasidir. Bugun shoir butun dunyo muammolarini kuylashga mahkum va majbur. Buni u atay qilmaydi, balki tabiiy ravishda ado etadi. Bugun dunyo siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ekologik, psixologik jihatdan yaxlit arenaga aylanib ulgurgan. Natijada inson badiiy tafakkurida ham

o'zgarishlar sur'ati misli ko'rilmagan darajalarda tezlashmoqda. Adabiyotdagi «izm»lar ham shunga ko'ra tez-tez yangilanib bormoqda. Chunki jamiyat kayfiyati yangilanmoqda. Jamiyat kayfiyati esa adabiyot yangilanishini taqozo etadi. Yangilanish adabiyotning tarzini, yo'nalishlarini o'zgartiradi, demakki, uning qarshisida yangidan yangi muammolarni paydo qiladi. Zamonaviy adabiyotning muammolari o'zgargan, o'zgarishda shiddat bilan davom etayotgan dunyoning muammolari bilan bog'liq. Moskvada o'tkazilgan dunyo kongressida mashhur yozuvchi Ch. Aytmatovga jurnalist N. Boltyanskaya quyidagicha savol beradi: «Forum yozuvchilarning muhim masalalaridan biri dunyo adabiyoti muammosidir. Zamonaviy jahon adabiyotining bosh muammosi nimada deb o'ylaysiz?». Ch. Aytmatov: «Bu savolga javob berish judayam qiyin. Qo'lida qalami bor har bir yozuvchi inson hayotining eng muhim qismini, yuragini nishonga olyapman deb o'ylaydi. Nazarimda, inson juda katta sinovlar arafasida turibdi. Bu sinovlar dunyoviy konfliktlar, urushlar va shu kabilar bilan bog'liqdir. Sinovlarda inson o'zini qanday ko'rsata oladi? Ehtimol, shu narsa (adabiyotdagi – U.H.) eng muhim masaladir. Ammo judayam og'ir masala...» – deya javob beradi. M. Peshkovaning «Sizning ma'ruzangiz nima haqida bo'ladi?» degan savoliga Ch. Aytmatov shunday javob beradi: «Ekologiya va so'z. Bunday so'z birikmasi ajoyib-a?! Nahotki, ekologiya so'zga bog'liq bo'lsa?.. Bog'liq. Mening nazarimda, yer yuzidagi hamma narsa – ezgulik va yovuzlik, birinchi navbatda, so'zdan bino bo'ladi. So'z bu, avvalo, bizning fikrlarimiz, niyatlarimiz, harakatlarimiz, amallarimiz va hokazolardir. Buni ekologiya rakursida olib qarasak, zamindagi ekologiya ko'p jihatdan insonning o'zini qanday tutishiga bog'liq».

Demak, zamonaviy jahon adabiyoti muammolarini yozuvchi Chingiz Aytmatov shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda insonning o'zini qanday tutishida ko'radi. Ya'ni bu yerda birlamchi bo'lgan narsa – munosabat. Atrof-muhitda sodir bo'layotgan olamshumul voqea-hodisalarga zamonaviy inson qanday qaraydi va qanday munosabatda bo'ladi degan savol nafaqat dunyoning, ayni damda, adabiyotning ham taqdirini hal qiladi deyilmoqda. Umumjahon forumida bo'lib o'tgan suhbatda ishtirok etgan adabiyotshunos T. Venslova: «Qisqa aytganda, fransuz she'riyati o'ldi», – deya xitob qiladi. Vaqtida xuddi shu gapni Bulat Okudjava rus she'riyati haqida aytgan edi. Bunday taxminlar, bashoratomuz fikrlar doim aytilgan. Masalan, 90-yillarda o'zbek yozuvchisi Sh. Xolmirzayev ham «Adabiyot o'ladimi?» degan maqola bilan chiqqan edi. Gap shundaki, vaqti-vaqti bilan jamiyat (ma'naviy-ruhoniylar bo'hronlar davrida) ana shunday kayfiyatlarga tushib turadi. Bu narsa, albatta, mamlakatdagi iqtisodiy, siyosiy, psixologik evrilishlar bilan bog'liq holda ro'y beradi. XX asrning 70-yillari avlodidan keyin o'zbek adabiyoti, xususan, o'zbek she'riyati o'ldi degan «bashorat»lar ham puch edi. Holbuki, bugun o'zbek o'quvchisi qadim ildizlardan suv ichib, zamon kayfiyatidan nafas olgan tamomila yangilangan istiqlol davri o'zbek adabiyoti bilan yuzma-yuz turibdi. Bularning siri esa o'zgarishlar negizida. Jamiyatda yangilanishlar

shabadasi esib qolganda maydon markaziga har doim esinti yo'nalishini to'g'ri fahmlab, o'z asarlarida aks ettira oladigan ijodkorlar tushadi. Ammo davrlar tinimsiz almashib, o'zgarib turgani bois har bir davr o'z ijodkor (avlod)ini yaratadi. Bundan ko'z yumib bo'lmaydi. Barcha zamonlar «hadis»ini to'g'ri anglagan va ularni yuksak san'atkorlik bilan asarlariga ko'chira olgan ijodkorgina mumtozlik maqomiga ega bo'ladi. [4]

Xulosa

Istiqlol davri o'zbek adabiyoti o'zining yangi bosqichiga qadam qo'yar ekan, bu adabiyotning shakllanishi va taraqqiyoti tarixiy an'analar, milliy meros hamda global o'zgarishlar negizida kechayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda. XX asr boshlarida Cho'lpon kabi adiblar tomonidan boshlangan yangilikka intilish ruhiyati bugungi erkin adabiy tafakkurda o'zining munosib davom etishini topdi. Maqolada ta'kidlanganidek, adabiyot endilikda shakl va mazmun uyg'unligiga erishib, insonning ichki kechinmalari, jamiyatlardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar hamda global muammolarni badiiy jihatdan chuqur yoritish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Axborot texnologiyalari ta'sirida madaniyatlar aralashuvi jarayonlari adabiyotga yangi shakl va g'oyalarni olib kirgan bo'lsa-da, bu holat ayni vaqtda san'atning ommaviy didsizlashuv kabi salbiy oqibatlarni ham yuzaga chiqarmoqda. Chingiz Aytmatov ta'kidlaganidek, zamonaviy adabiyotning bosh masalasi insonning o'zini qanday tutishi, so'z va niyatlar orqali ezgulik sari intilishidir. Bu jarayonda har bir davr o'z ijodkorini yaratadi. Asl san'atkor esa har qanday o'zgarishlar ichra o'z xalqining ruhini, davrning nafasi va inson qalbining eng nozik nuqtalarini asarlariga ko'chira olgan ijodkordir. Bugungi o'zbek adabiyoti ham shunday san'atkorlar timsolida o'zining yangi sahifasini yaratmoqda.

Foydalangan adabiyotlar :

1. Ulug'bek Hamdamov. Jahon adabiyoti: Modernizim va postmodernism (o'quv qo'llanma) T-: 2020-y 26-bet
2. Ulug'bek Hamdamov. Jahon adabiyoti: (o'quv qo'llanma) T-: 2020-y 27-bet
3. Ulug'bek Hamdamov. Jahon adabiyoti: Modernizim va postmodernism (o'quv qo'llanma) T-: 2020-y 41- bet
4. Ulug'bek Hamdamov. Jahon adabiyoti: (o'quv qo'llanma) T-: 2020-y 56-59-betlar
5. Maxkamova, M. (2024). KICHIK MAKTAB YOSHDAGI BOLALARDA DIQQATNI RIVOJLANTIRISH USULLARI. *University Research Base*, 99-102.
6. Orziqulov, X. (2024). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIIY PEDAGOGIK KOMPONENTLIKNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 1(5), 228-230.